

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2024-yil 5-oktabrdagi 2-sonli bayonnoma).

T u z u v c h i l a r :

Sulaymonov J.B. – TDSHU “Sharq falsafasi va hermenevtika” kafedrası mudiri, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

T a q r i z c h i l a r:

Karimov R.R. – O‘zMU “Falsafasi va mantiqi” kafedrası professori, falsafa fanlari nomzodi;

Qodirov M. – TDSHU “Sharq falsafasi va hermenevtika” kafedrası professori, falsafa fanlari nomzodi.

Kirish

09.00.03 - Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD)ga "Mutaxassislik" fanidan qabul imtixonining tashkil etish va o'tkazish - falsafa tarixini har bir davr falsafiy tafakkurining o'ziga xos xususiyatlari, vorisiylik va yangi tendensiyalar, ularning o'zaro aloqadorligi hamda o'zaro ta'siri, Sharq va G'arb falsafasining o'ziga xos jihatlari hamda aloqadorligi, hozirgi zamon sivilizatsiyasida Markaziy osiyolik allomalarning o'rni va ahamiyati bo'yicha yoshlarning bilim darajasini sinovdan o'tkazishning eng ishonchli usulidir.

Dasturning maqsadi va vazifalari

Imtihon sinovlarini o'tkazishdan **maqsad** – Sharq va G'arb falsafasining asl milliy va ob'ektiv, umuminsoniy mohiyati va mazmuniga ko'ra jahon falsafasining qonuniy, zaruriy tarkibiy qismi ekanligini, uning jahon falsafasida tutgan o'rni shuningdek, madaniyat nazariyasining asosiy tushunchalari va tamoyillari xususida talabalarning bilimini tekshirishdan iborat.

Imtihon sinovlarining **vazifasi** – talabgorlarning

- falsafa tarixi bo'yicha olgan bilimlarini;
- falsafiy qadriyatlarning milliy va umumbashariy jihatlari ilmiy tahlil etish ko'nikmalarini;
- falsafa va falsafa tarixini millat hamda jamiyat ravnaqidagi o'rni haqidagi tushunchalarini;
- birinchi manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini;
- falsafiy merosni tahlil va tadqiq etish malakasini sinovdan o'tkazishdan iborat.

Fan bo'yicha talabgorlarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Talabalar falsafiy fikr taraqqiyoti jarayonini yaxlit tarzda tasavvur qila olishi, ayni paytda, turli xil falsafiy oqimlar, yo'nalishlar, ta'limotlarning mohiyatini tushunib yetishi, ularning ilmiy qadr-qimmatini va bugungi kun uchun ahamiyatini to'g'ri baholay olishi zarur.

ASOSIY QISM

I. QADIMGI DUNYO FALSAFASI

Qadimgi Markaziy Osiyoda ilmiy va falsafiy fikrlarning shakllanishi.

Qadimgi Markaziy Osiyodagi madaniy yuksalish, ilk diniy, falsafiy, ilmiy tasavvurlarning paydo bo'lishi. Avesto, unda ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy g'oyalar. Mazdakiylik, uning dunyoqarash mazmuni. Moniylik, uning ijtimoiy-falsafiy fikr rivojida tutgan o'rni. Qadimgi Markaziy Osiyodagi ilmiy va falsafiy fikrlarning jahon madaniyati taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri.

Qadimgi Misr va Bobilda dunyo haqida dastlabki ilmiy tasavvurlarning paydo bo'lishi.

Qadimgi Misr va Bobilda Ovrupo davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamkorlik. Dastlabki ilmiy-falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi. Er av. III ming yillikda quldorlik tuzumning shakllanishi. Ilmiy fikrlarning rivojlanishi. Diniy dunyoqarash va diniy asoslarga nisbatan tanqidiy qarashlarning shakllanishi.

Qadimgi Xitoy va Hindistonda falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi.

Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat rivoji. Shan'-in' davlatida quldorlikning vujudga kelishi. Diniy mifologik qarash hukmronligi. Xitoyda mifologik qarashlarning o'ziga xos xususiyati. In' va Yan' ruhi haqida. Naturfalsafiy g'oyalarning shakllanishi. Konfusiy ta'limoti, undagi ahloqiy masalalar, ularning bugungi kunda yoshlarni umuminsoniy ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati. Uning osmon va oliyjanob er haqidagi ta'limoti. Lao Szi ta'limoti. Uning «Dao de szin» asari. Lao Szining dunyoning moddiy asosi haqidagi ta'limoti. Uning ijtimoiy-ahloqiy qarashlari.

Qadimgi Hindistonda dastlabki yozma manbalar vedalarning vujudga kelishi. «shruti» va «mantra». Rigveda, Samaveda, Yajurveda, Axtaraveda. Braxman sharhlari. Upanishadlar. Qadimgi hind falsafiy maktablari. Astika va nastika.

Buddizm va jaynizm falsafiy ta'limotlari.

Qadimgi Yunonistonda falsafiy fikrlar. Milet maktabi falsafiy ta'limoti.

Qadimgi Yunonistonda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ilg'or davlatning vujudga kelishi. Qadimgi Yunon naturfalsafasining shakllanishi, uning kosmotsentrik mazmuni. Milet maktabi. Fales (625-547 er. avval) birinchi qadimgi yunon olimi, uning matematika va astronomiyaga qo'shgan hissasi. Matematika va deduktiv nazariy fanni va uning dunyoqarashni rasionalizatsiyalashtirishdagi ahamiyati. Fales faylasuf sifatida. Suv - birinchi ibtido. Unda Sharq va Yunon elementining mavjudligi. Falesning gilozoizmi, uning mifologik tassavvurlar bilan bog'liqligi va ulardan farqi.

Anaksimandr (er. av. 610-546 yillar) - birinchi nasriy falsafiy asarning muallifi. Anaksimandrning fragmentlari. Apeyron muammosi. Uning birinchi ibtido funksiyasi. Dastlabki nomifologik kosmogoniyasi. Anaksimandr insonning paydo bo'lishi haqida. Anaksimandr tabiiy qonuniyat va uning ijtimoiy va antropomorf interpretatsiyasi haqida.

Anaksimenes (er avv 588-525 yillar) .Xavo dastlabki ibtido sifatida, uning universal roli haqidagi ta'limotining, antimifologik yo'nalishi haqida, havodan boshqa stixiyalarning yuzaga kelishi, havo va jon.

Geraklit falsafasi.

Efesslik Geraklit (er.avv. 544-480 y) falsafasi, uning «Tabiat haqida» asari. Fragmentlarga tavsifnoma. Olov birinchi ibtido haqidagi ta'limotining materialistik mohiyati Logos haqidagi ta'limoti, tabiiy zaruriyat g'oyasining shakllanishining ifodasi. Geraklit inson va uning ongi, joni haqida. Bilishda hissiyot va aqlning roli. Geraklit dialektikasi borliqning umumiy oquvchanligi, o'zgaruvchanligi haqidagi ta'limoti

Pifagor falsafasi.

Pifagor (er.av 580-500 yillar), uning falsafiy ta'limotlari. Pifagorchilar ittifoqining yuzaga kelishi. Uning faoliyati va ideologiyasiga orfik qarashlarning ta'siri. Ilk pifagorchilarning diniy-ahloqiy qarashlari. Metapontlik Gippas Alkemeon va uning tibbiy ta'limoti. Qarama-qarshiliklar haqida. Filolay (er.avv V asr-IV asr ikkinchi yarim) va Arxit (er.av. IV asr) pifagorchilar namoyandalari.

Eley falsafiy maktabi.

Ksenofan (er.avv.565-473 yillar). Uning tomonidan ioniya natur falsafasini o'zgartirilishi. Ksenofanning pantezmi. Uning aptropomorf, politeistik mifologiya va dinni tanqid qilishi. Ksenofan ta'limotidagi qarama-qarshlik.

Parmenid (er.avv. 540-515 y) eley falsafaiy maktabining yirik vakili. Uning «Tabiat haqida» asari, unda «shubhali yo'lni» «Haqiqat yo'liga» qarama-qarshi qo'yilishi. Parmend tomondan noborliqning inkor etilishi. Parmendning bilish nazariyasi u aql va hissiyot to'g'risida.

Empedokl falsafasi

Empedokl (er.av. 490-430 yillar) ning to'rt unsur haqidagi ta'limoti. Jismlarning zarrachalari haqidagi ta'limoti va ular jismlarning paydo bo'lishi manb'ai ekanligi. Muhabbat va yovuzlik tabiiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuchlar.

Anaksagor falsafasi

Anaksagor (500-428 er.av.) ning falsafiy ta'limoti. Uning materiya haqidagi ta'limoti. Ularda «urug'lar» (gomomeriyalar) va jismlarning yuzaga kelishi materiyaning yo'q bo'lib ketmasligi NOYS tabiiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch. Anaksagorning gnoseologik ta'limoti kosmogonik jarayon va unda NOYS (aql)ning roli astronomik va metereologik xodisalar.

Sofistika.

Sofistika er.avv.V asrning ikkinchi yarmi IV asrning boshlarida yuzaga kelgan rasional oqim. Quldorlik demokratiyasining yutuqlari va fuqorolarning gumanitar ta'limga ehtiyojlarining oshishi. Afina Qadimgi Yunonistogdagi ta'lim va madaniyatning markazi. Pullik ta'limning vujudga kelishi. «Sofist» degan atamaning paydo bo'lishi. Sofistika va falsafa tarixining qiymati. Zamondoshlari tomonidan sofistika baho berish va bu hodisaga yondashishda yuz bergan o'zgarishlar.

Suqrot falsafasi.

Suqrot (er.avv.470| 469-399 y). Suqrotning hayoti va ijodi. Davlat, uning faoliyatiga munosabati.Suqrotning o'limi haqida. Suqrot qarashlari haqida manbalar, ma'lumotlar. Suqrot falsafasining antropologik mohiyati. Naturfalsafani inkor etishi va falsafani hayot tarzi ma'nosida tushunishi. Suqrot uslubi (dialektikasi). Suqrotning axloq haqidagi doktrinasi.Suqrotchilar maktablari. Antisfen kiniklar maktabining asoschisi. Antisfenning sensualizmi va umumiylikning realligini inkor etishi

Levkip-Demokritning atomistik ta'limoti.

Levkip (er.av. 500-440 yillar) atomistik ta'limotning asoschisi. Levkip ta'limotida Ioniya falsafasi va Parmenidning borliq haqidagi ta'limotlari o'z aksini topishi. Borliq va noborliq, atomlar va bo'shliq.

Abderlik Demokrit (er.av. 460-370 yillar). Uning hayoti, ijodi va Sharq mamlakatlarga qilgan sayohati. Demokritning qomusiy ilmi va uning asosiy asarlari. Uning tomonidan atomistik prinsiplarning rivoji. Atomlarning xossalari. Atom va bo'shliqning mavjudligini isbotlash. Atomizm tabiat hodisalarini universal tushuntirish. Materiya va harakatning abadiyligi va yo'q bo'lib ketmasligi.

Platon va Aristotel falsafasi

Platon biografiyasining asosiy faktlari. Uning asarlari. Platon falsafasining nazariy manb'alari. Uning idializmining gnoesalogik ildizlari. G'oyalari haqidagi ta'limoti. Platon tomonidan g'oyalarni tanqid qilishda gnoseologik va antologik yondoshish. Materiya va g'oyalar dunyosi. G'oyalarning o'zaro aloqadorligi va jismlar bilan aloqadorligi. Platon tizimida asosiy funksiyalar. Platonning kosmologik qarashlari ularning mifologik va pifagorchilar ta'limotlari bilan bog'liqligi. Yaratish muammosi va Demiurg g'oyasi

Aristotel (er.avv. 384-322 y) Aristotelning hayoti, ijodi va asarlari. Uning Platon Akademiyasidagi davri. O'z ustozining «g'oyalar dunyosi» ta'limotiga qarshi chiqishi va uning to'rtta e'tirozi.

Aristotel asos solgan Likey maktabi va undagi ilmiy falsafiy faoliyati. Ontologik qarashlari. Aristotel fanlarni tasnifi haqida. «Birinchi falsafa» va boshqa nazariy fanlar, amaliy va ijodiy fanlar. Aristotel mantig'i va uning falsafiy tizimidagi o'rni.

Ellin-Rumo davrida antik falsafa.

Ellinizm davrida O'rta yer dengizi xalqlari hayotida ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar. Aleksandriya, Pergem va boshqa yangi madaniyat markazlarining paydo bo'lishi. Sharqiy o'rta yer dengizi xalqlarining ellinik davrida ma'naviy madaniyati rivojida yangi xususiyatlarning yuzaga kelishi: diniy sinkretizm, individuallik, kosmopolitizm, ijtimoiy manfaatlarning so'nishi, pessimizm. Bu xususiyatlarning polis tuzumining xosligi bilan bog'liqligi.

Epikur (341-270y) va uning tomonidan Afinada materialistik maktabning tashkil etilishi. («Epikur bog'i»). Epikur falsafaning vazifasi haqida. Uning asosiy qismlari. Epikur falsafasi tomonidan Demokrit atomizimini o'ziga xos ma'noda anglash. Fizikada zaruriyat va tasodifiyat, sababiyat va erkinlik muammosi. Atomlarning o'z-o'zicha to'g'ri chiziqdan og'ishi qobiliyati, inson erkinligining sharti, o'lim haqidagi ta'limoti va jonning jismiyligi.

Neoplatonchilikning asosiy maktablari: Aleksandriya-Rumo (eramizning III asr) suriyalik (IV asr) va Afina (V asr) maktabi va ularning asosiy nomoyondalari Plotin(203-270 y)ning falsafiy faoliyati uning asarlari. Birlilik haqidagi ta'limoti. Aql va dunyoviy jon ideal borliqning asosiy ipostisiylari. Nurlanish jarayoni Birlilikning ko'payishi va inqirozi. Materiya «Noborliq» va jismlarning paydo bo'lishining salbiy sharoiti. Jon va tana munosabati haqida ta'limoti va inson ruhining tozalanishi xudoga yo'l sifatida. Plotinning antisensualizmi va bilimlarni mushohadali talqin etilishi ekstaz haqidagi ta'limotida Plotinning mistisizmi.

Stoisizm falsafiy oqimining mohiyati.

Skeptisizmning asosiy g'oyalari.

Kiniklar, ularning ilgari surgan va asoslagan g'oyalari.

Yamvlix (280-330 y) uning falsafasining mifolgiyaga munosabati. Prokl Afina maktabining asoschisi va neoplatonizmning sistemalashtiruvchisi. Dunyoviy jarayonning triadialik ritmi haqidagi ta'limoti. Prokl ta'limoti Yustinian tomonidan Afina maktabining yopilishi. Formal ravishda Antik falsafaning tugallanishi.

II. O'RTA ASR G'ARB FALSAFASI

O'rta asr G'arb falsafasining predmeti, ijtimoiy-g'oyaviy manbalari va xususiyatlari.

Xristian dinining aqidalari, ularning O'rta asr G'arb falsafaning shakllanishiga ta'siri. O'rta asr G'arb falsafasining teotsentrik mohiyati, uning rivojining asosiy bosqichlari.

O'rta asr xristianlikning apologetika davri va uning o'rta asr falsafasida tutgan o'rni.

Apologetikaning ko'zga ko'ringan vakillari Yustin Tatian, Tertullian, Aleksandriya maktabining vakillari Kliment, Origenlarning xristianlikni himoya qilishdagi harakatlari.

Xristianlikning patristika davri va Avgustin ta'limoti.

Patristika davrining xususiyatlari, patristikaning yirik vakili Avreliy Avgustinning merosi. Ontologik, gnoseologik ta'limotlari, tarix falsafasi.

Sxolastika. Realizm va nominalizm o'rtasidagi baxs. Realizmning keskin o'ta va mo'tadil oqimlari.

Anselm Kenterberiyскийning sxolastik realizmi. Xudo konsepsiyasi.

Per Abelyar va uning cherkov va ortodoksal sxolastikaga qarshi kurashi.

Foma Akvinskiy ta'limoti. Foma Akvinskiy tomonidan Aristotel ta'limotining xristian ilohiyotchiligi ruhida talqin qilinishining tanqidi.

Sxolastikaning nominalizm oqimi va uning namoyandalari. Nominalizm da individual shaxsga e'tibor, inson xatti-harakati va iroda erkinligi. Aqlning e'tiqodga nisbatan ustunligi.

XIII asrda Yevropada falsafiy fikrlar rivoji.

XIII asrda Yevropada ilm-ma'rifatning rivoji. Universitetlarning tashkil etilishi. Sxolastikaning inqirozi. Nominalizmning rivoji. R. Bekon va D. Skott qarashlari.

Uyg'onish davri falsafasining xususiyatlari.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrgacha Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy –ma'naviy o'zgarishlar. Uyg'onish davri falsafasining antropotsentrik va gumanistik mohiyati hamda asosiy yo'nalishlari.

Nikolay Kuzanskiyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari.

Kuzanskiy tabiiy-ilmiy qarashlaridagi geliotsentrik g'oyalarning mohiyati. Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi. Bilish haqidagi ta'limoti. Mantiqiy qiyoslash va tafovutlash to'g'risidagi fikrlari.

N. Kopernik geliotsentrik ta'limotining mohiyati va dunyoqarash ahamiyati.

N. Kopernikning geliotsentrik ta'limotning asosiy ilmiy tamoyillari. Hissiy va aqliy bilishning birligi masalasi. Kopernik ta'limotining cherkov tomonidan ta'qib qilinishi

sabablari.

J. Bruno falsafiy qarashlari.

J. Brunoning hayoti va ilmiy merosi. Bruno dunyoqarashida koinotning cheksizligi va olamning sanoqsizligi to'g'risidagi g'oyalar. Materiya va shakl munosabatlari haqida.

G.Galileyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari.

Galileyning hayoti va ilmiy merosi. Galileyning ontologik qarashlarida dialektik g'oyalar. Galiley-ilmiy bilish erkinligining tarafdori.

Uyg'onish davrida sotsiologik ta'limotlarning rivojlanishi.

Uyg'onish davrining sotsiologik ta'limotlari. Insonning tabiiy huquqlari haqidagi g'oyalarning vujudga kelishi. Nikkolo Makiavelli-yagona markazlashgan dunyoviy hokimiyat tarafdori.

Ilk utopik sotsializm. T.Mor va T. Kampanella.

T. Morning jamiyat haqidagi g'oyalari. Yangi jamiyatda axloqiylik masalasining qo'yilishi.

T. Kampanellaning «Quyosh shahri» asari. Ilk utopik sotsializm g'oyalarining sotsiologik ta'limotlar rivojida tutgan o'rni.

III. YANGI VA ENG YANGI DAVR FALSAFASI

XVII asr ilmiy inqilobi va uning falsafiy fikr rivojiga ta'siri.

Yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasining shakllanish shart-sharoitlari. Yirik sanoat ishlab chiqarishining vujudga kelishi, uning fan taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri. Klassik falsafaning shakllanishi. Falsafada ilmiy bilish metodologiyasi masalalarining tadqiq etilishi. F.Bekon, R.Dekart, T.Gobss, B.Spinoza, J.Lokk, Leybnis ilmiy-falsafiy qarashlari. J.Tolland hurfikrliligi.

XVIII asr Angliya sub'ektiv idealizmi.

Jorj Berkli falsafasi XVII-XVIII asr ingliz burjuaziyasining falsafa va dinga munosabati. Jorj Berklining sub'ektiv idealizmi. Uning materiya va ob'ektiv olam haqidagi ta'limoti hamda dinga munosabati. J.Berklining falsafa tarixidagi o'rni.

David Yum falsafasining ijtimoiy-siyosiy ildizi. Ontologik qarashlari. D.Yumning gnoseologik qarashlari. Uning «Inson bilishi haqidagi tadqiqoti» asarida falsafiy masalalarning tahlili. O'xshashlik, makon va zamon, sababiyat assotsiatsiyalari.

XVIII asr ma'rifatchilik falsafasi

XVIII asrda Fransiya, Angliya, Germaniyada ma'rifatparvarlik g'oyalarining paydo bo'lishi, ularning yangi davr falsafiy ta'limotlarida aks etishi.

XVIII asr fransuz ma'rifatchiligining o'ziga xos xususiyatlari va rivoji. Ularning dinga munosabatlari.

Volterning falsafiy qarashlari. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.

Sh.Monteskening ijtimoiy-falsafiy qarashlari. "Geografik determinizm", "hokimiyatning bo'linishi" va boshqa g'oyalari, ularning tarixiy ahamiyati.

J.J.Russo - Fransiyaning siyosiy mafkurachisi. Russoning «Insonlar o'rtasida tengsizlikning kelib chiqishi va asoslari to'g'risida mulohazalar» asarida falsafiy va ijtimoiy muammolar. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. J.J.Russo davlatning kelib chiqishi haqida. Uning dinga munosabati. J.J.Russoning pedagogik qarashlari.

Lametrining tabiiy-ilmiy qarashlari. Uning falsafiy ta'limoti. Borliq haqidagi mulohazalari. Lametrining gnoseologik masalalarni hal etishi. Uning axloq haqidagi fikrlari. Lametrining ijtimoiy qarashlari.

Deni Didroning hayoti, ijodiy faoliyati va falsafiy asarlari. Didroning falsafiy qarashlari. Didroning bilish nazariyasi. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Didroning dinga bo'lgan munosabati.

A.Golbaxning xayoti, ijodiy faoliyati va falsafiy asarlari. Uning tabiatshunoslikka munosabati. Materiya va harakat birligi haqida. Golbaxning bilish nazariyasi. Uning fatalistik determinizmi. Dinga bo'lgan munosabati. Ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Konstitusion monarxiya- Golbaxning siyosiy ideali.

Gelvesiyning hayoti, ijodiy faoliyati va falsafiy asarlari. Gelvesiy falsafasida materiya va harakat masalasi. Gelvesiyning bilish nazariyasi. Jamiyat haqidagi qarashlari. Gelvesiyning dinga bo'lgan munosabati.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshida nemis falsafasi.

XVIII asr ikkinchi yarmi XIX asrning birinchi yarmida yuzaga kelgan nemis falsafasining ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy ildizlari, unga tabiiy-ilmiy va diniy ta'limotlarning ta'siri. Nemis falsafasi rivojining bosqichlari.

Kantning hayoti va falsafiy asarlari. Kant dunyoqarashining evolyusiyasi. Kantning tanqidiy davrgacha bo'lgan ijodi. Uning tabiiy-ilmiy qarashlari. Kantning «Sof aql tanqidi» asarining tizimi va mazmuni. Nazariy va amaliy aql tanqidi. Uning estetik nazariyasi. Kantning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Kant ta'limotining G'arbiy Yevropa falsafasi rivojiga ko'rsatgan ta'siri.

Fixtening hayoti, ijodiy faoliyati va falsafiy asarlari. Fixte falsafiy qarashlarining shakllanishida Kantning ta'siri. Uning sub'ektiv idealizmi. Fixte dialektikasi. Fixtening ijtimoiy va axloqiy qarashlari.

Shellingning hayoti, ijodiy faoliyati va asarlari. Shelling falsafasining shakllanishiga Kant ijodining ta'siri. Shellingning tabiat falsafasi. Uning dialektikasi. Shellingning bilish nazariyasi. Ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Shelling «San'at falsafasining mohiyati» haqida. Shelling falsafasida «Ilohiy bashorat» ta'limoti.

Gegel falsafiy ijodining asosiy davrlari va bosqichlari. Gegelning falsafiy sistemasi va uslubi. Gegel tabiat falsafasining asosiy xususiyatlari. Mutloq ruh haqidagi ta'limoti. Gegelning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Din, huquq va san'at falsafasi. Gegel falsafa tarixchisi sifatida.

Feyerbaxning hayoti, ijodiy faoliyati va falsafiy asarlari. Gegel falsafasining tanqidi Feyerbaxning antropologik ta'limoti. Uning gnoseologik qarashlari. Ijtimoiy-siyosiy fikrlari. Feyerbax muhabbat dini haqida. Uning axloqiy qarashlari.

Neokantchilikning Baden maktabi

Neokantchilikning shakllanishi, asoschilari va yo'nalishlari. O.Libman, I.Myuller, G.Gelmgols, F.A.Lange, G.Kogen, P.Natorp, E.Kassirer ilk neokantchilik yo'nalishi vakillaridir. Neokantchilik ko'targan muammolar. Jumladan, neokantchilikning dastlabki vakillarining I.Kantning bilish nazariyasiga munosabati. Uni fiziologiya tomonidan hal etishga bo'lgan harakat. V.Vindelband, G.Rikkert – Baden maktabi asoschilari. Ularning ijtimoiy-tarixiy g'oyalari. Tarixni materialistik tushunishga qarshi fikrlari. G.Rikkertning tarixiy fanlarni metodologiyasini tuzishga bo'lgan harakati. Tarixni o'rganishni yangi metodi haqida. Tarixni qadriyat sifatida talqin etish. Baden maktabining qadriyatlar nazariyasi. Falsafa - qadriyatlar haqidagi ta'limot sifatida. Bilim va qadriyat munosabati. Tabiat fanlariga munosabat. Madaniyat haqidagi fanlarga munosabat. Neokantchilikning XX asrda vujudga kelgan boshqa oqimlarga, xususan Sharq falsafasiga ta'siri.

Neogegelchilik

Neogegelchilikning ilmiy, g'oyaviy-nazariy asoslari. Neogegelchilikning turli G'arb mamlakatlaridagi rivoji. Neogegelchilar tomonidan Gegelning ijtimoiy-siyosiy, davlat haqidagi g'oyalarini yangicha talqin etilishi. Angliyada neogegelchilik rivoji. Frensis Bredli – ingliz neogegelchiligining vakili. F.Bredlining dialektika to'g'risidagi ta'limoti. Salbiy dialektika haqida. Reallik va mutlaqlik. Mutlaq idealizmning ijtimoiy konsepsiyasi. Davlat yaxlitlik sifatida. Mutloq idealizmning keyingi taqdiri. Neogegelchilik g'oyalarining Sharq falsafasiga ta'siri.

Mantiqiy pozitivizm yoki lingvistik tahlil

Mantiqiy pozitivizmning vujudga kelishi. Uning rivojida Vena to'garagining faoliyati, g'oyaviy manbalari, gnoseologik ildizlari. R.Karnap, O.Neyrat, F.Frank, G.Feygl, X.Reyxbax – mantiqiy pozitivizm vakillari. Mantiqiy pozitivizmning bilish nazariyasi. Bilim hissiyotning belgisi sifatida. Gaplar klassifikatsiyasi (tasnifi). Verifikatsiya tamoyili, uning keyingi evolyusiyasi. Verifikatsiya protsedurasi. Mantiqiy pozitivizmning fan haqidagi konsepsiyasi. Fan tilini yagona tizimga keltirish. Konvensionalizm. Fizikalizm. Ijtimoiy taraqqiyot haqidagi ta'limoti. Lingvistik tahlil falsafasi. Til «o'yin» sifatida. «Oilaviy o'xshashlik» nazariyasi. Falsafiy muammolar

eliminatsiyasi. Lingvistik tahlilning mantiq fani rivojidadagi, fan falsafasidagi ahamiyati. Uning zamonaviy Sharq falsafasiga ta'siri.

Postpozitivizm

Postpozitivizmning vujudga kelishi, nazariy-g'oyaviy asoslari. P.Feyerabend, K.Popper postpozitivizm namoyandalari. Postpozitivizm da bilish maslasini o'ziga xos talqin etilishi. Rasionalizm muammosi. Umumiy ilmiy metodning inkor qilinishi. O'ziga xos tanqidiy metodni yaratilishi. «Insoniy tushunish». Bilimda sub'ektiv omil masalasi. «Shaxsiy bilim». «Metodologik anarxizm». Fan tanqidi. Demarkatsiya – ilmiy bilimdan noilmiy bilimni ajratish. Ijtimoiy-sotsiologik konsepsiyasi.

K.Popperning «ochiq jamiyat» haqidagi ta'limoti va uning g'arb ijtimoiy tafakkuridagi ahamiyati. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Demokratiya haqida. Din haqidagi qarashlari. Falsafa tarixiga munosabati. K.Popper ta'limotining keyingi falsafiy fikr rivojiga ta'siri. Postpozitivizm g'oyalarining zamonaviy Sharq falsafasiga ta'siri.

Falsafiy antropologiya

Germaniyada falsafiy antropologiyaning shakllanishi. Bu oqimning vujudga kelishiga ijtimoiy-tarixiy sharoitning ta'siri. Uning g'oyaviy-nazariy manbalari. Ekzistensializm va antropologiya. Freydizm va antropologiya. A.Gelen falsafiy biologik antropologiya asoschisi. Uni inson haqidagi ta'limoti. «Inson nomukammal mavjudot sifatida. Insonning shakllanishida tabiatning ta'siri. Insoniyat olami va hayvonat olami. Ular o'rtasidagi munosabat. E.Rotxakker va M.Landman madaniy-falsafiy antropologiya asoschilari. Inson mukammallashuvida jamiyatning ta'siri. Ijtimoiy muxit haqida. Inson va uning hayot tarzi. M.Sheler, G.-E.Xenstenberg – falsafiy-diniy antropologiya vakillari. «Koinotda inson o'rni». Inson tarbiyasida dinning ahamiyati. Inson «ob'ektiv» mavjudot sifatida. Diniy antropologiyaning muhabbat haqidagi qarashlari. Falsafiy antropologiyaning keyingi rivoji. Falsafiy antropologiya g'oyalarining zamonaviy Sharq falsafasiga ta'siri.

Ekzistensializm

Ekzistensializmning shakllanishi, rivojlanish evolyusiyasi, asoschilari va yo'nalishlari. Ekzistensializm ko'targan muammolar - inson, uning borlig'i, hayoti mazmuni masalalari. G.Marsel – fransuz ekzistensializmining namoyandasi. Uning inson «ontologiyasi» haqidagi ta'limoti. Hayotlik va mavjudlik. «Bor bo'lmoq yoki ega bo'lmoq» asarida insonning individual tajribasi haqidagi ta'limoti. Inson borlig'i haqida. Yashash mazmuni. G.Marselning bilish nazariyasi. Bilish masalasida rasional bilimni intuitiv bilimga qarshi qo'yishi. Borliq - bu tilsimotdir. Uning ijtimoiy falsafasi. Inson - diniy mavjudot sifatida. Dinga bo'lgan munosabati. Inson e'tiqodi haqida. Sharq falsafasiga ekzistensializmning ta'siri.

Fransuz strukturalizmi

Fransiyada strukturalizmning vujudga kelishi. Strukturalizmning ilmiy-nazariy ildizlari, turtki bo'lgan omillar. Jamiyat hayotini o'rganishga bo'lgan yangicha dunyoqarashni shakllanishi. K.Levi-Stross – fransuz strukturalizmi asoschisi va etnologi. Strukturaviy antropologiyaning metodologik asosi. O'adimgi urug'-qabilachilik munosabatlarini tadqiqotchisi. Totemlar, asotirlar (miflar), maskalar, nikohlar – insoniyat madaniy rivojlanishining ko'rsatkichidir. Qadimgi urug'-qabilachilik va hozirgi zamon insoniy munosabatlar o'rtasidagi muloqot. «Strukturaviy antropologiya» asari. Madaniyatga semantik yondashuv. Jamiyat hayotini lingvistik tahlil etish. Jamiyat taraqqiyoti masalalari. Inson hayotini modernizatsiya qilish muammosi. Strukturalizmning keyingi rivoji. Uning zamonaviy Sharq falsafasiga ta'siri.

Poststrukturalizm

Poststrukturalizm – strukturalizmning yangi bosqichi. M.Fuko – fransuz strukturalizmi vakili. Struktura tushunchasi. «Bilim arxeologiyasi» asari. Bilim va inson xarakteri o'rtasidagi munosabat. «So'z» va «narsalar» o'rtasidagi munosabat. Jamiyat rivojida tilning ahamiyati. Epistemalar haqidagi ta'limot. Tarixiy epistemalar. Epistema davrlari. Uyg'onish davri, klassik rasionalizm va hozirgi zamon epistemalari. Bilim diskurs sifatida. Diskurs tushunchasi. Epistema – faoliyatni aniqlab beruvchi struktura (tizilma). Gumanitar fanlar arxeologiyasi – muayyan davr strukturalari. Gumanitar fanlar jamiyat ruhiyati haqida so'zlaydi. Strukturalizmning keyingi rivoji va hozirdagi ahamiyati.

Postmodernizm

Hozirgi zamonda jamiyatni zgartirishga bo'lgan harakat. Modernizm oqimining vujudga kelishi. Ijtimoiy hayotning hamma sohalariga tarqalishi. Falsafada modernizm g'oyalari. J.Delez, J.Derrida, F. Guattari – postmodernizm namoyandalari. J.Derridaning «dekonstruksiya» uslubi. Falsafaga munosabat. Metafizikani inkor qilinishi. «Matn» va «yozuv» munosabati. Muammoni ichidan turib tanqid qilish. O'z-o'zini referensiya qilish muammosi. J.Delez va F.Guattarining jamiyatni modifikatsiya qilish haqidagi ta'limoti. Inson muammosi. Xohishlarni dekodifikatsiyasi. Inson «xohlovchi mashina» sifatida. Xohishlarni ro'yobga chiqarish. J.Delez «ontologiyasi». Ekzistensializm va postmodernizm. Ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasi. «Kapitalizm va shizofreniya» asari.

Neotomizm

Diniy sxolastikaning qayta tiklanishi, ijtimoiy-gnoseologik sabablari. Neotomizm metafizikasi. Kreasionizm, xudo borlig'ini isboti. Mohiyat va mavjudlik. Substansiya va aksidensiya. Materiya va shakl. Potensiya va akt. Neotomizm naturfalsafasi. Neotomizm bilish

nazariyasi. Aql haqiqati bilan vahening mutanosibligi. Ruhiy bilim va hissiy qabul qilish o'rtasidagi munosabat. «Intensionallik» masalasi. Haqiqat haqidagi ta'limot. Neotomizmning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy konsepsiyasi. Inson tabiati va uning dunyodagi o'rni. Qadriyatlar haqidagi ta'limoti va tarix. «Uchinchi yo'l» nazariyasi. Neotomizmning hozirgi kundagi ahamiyati. Neotomizm g'oyalarining zamonaviy Sharq falsafasiga ta'siri.

Falsafiy hermenevtika

Falsafiy hermenevtikaning g'oyaviy asoslari. Hermenevtikani tarixdagi va hozirgi kundagi evolyusiyasi. Hermenevtika «talqin qiluvchi» ta'limot. Hermenevtika «tushunuvchi» ta'limot. Falsafa mazmunini «tushunish». Hermenevtik tajriba konsepsiyasi. «Tushunishdan oldingi bilish», «tushunishdan oldingi fahmlash» «Tushunishdan oldingi tushuncha» masalasi. Hermenevtika – uslub sifatida. Hermenevtik «doira». Hermenevtik «o'yin». G.-X.Gadamer-ning «Metod va haqiqat» asari. Hermenevtik dunyoqarash mazmuni. G'oyaviy-falsafiy yo'nalishi. Hozirgi kunda hermenevtikaning insonlarni «tushunish» sifatidagi vazifasi va ahamiyati.

Fenomenologik hermenevtika

Hermenevtikaning keyingi rivoji va o'zgarishi. Hermenevtika va din munosabati. P.Rikker – fransuz fenomenologik hermenevtika asoschisi. Diniy dunyoqarash bilan ekzistensializm sintezi – fenomenologik hermenevtika asosi. Shaxs haqidagi ta'limot. Shaxs – madaniyat dunyosini yaratuvchisi. Madaniy ijod – simvol (ramz) xususiyatiga ega. Hermenevtika – simvolni (ramzni) talqin qiluvchi ta'limot. Simvol – belgining strukturasi. Til – simvolika vazifasini bajaruvchisi. Mavjudlik va hermenevtika. Inson – madaniy-tarixiy ijod sub'ekti. Inson faol ijodkor bo'lganligi tufayli zamonlarni bir-biriga bog'laydi. Fenomenologik hermenevtikaning hozirgi kundagi ahamiyati.

Neofreydizmda inson masalasi

Psixanalitik oqimning vujudga kelishi. Z.Freydning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. E.Frommning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Muhabbat falsafasi haqida. Ijtimoiy psixologiyasi. K.Yungning inson haqidagi qarashlari va Z.Freyd qarashidan farqi. Psixik energiya haqida. Psixologik tiplar. Neofreydizmning keyingi taqdiri.

«Uchinchi to'lqin falsafasi». E.Toffler dunyoqarashi

«Uchinchi to'lqin falsafasi». Elvin Toffler – «Uchinchi to'lqin» oqimining yirik namoyandasi. E.Toflerning hayoti, ijodi. E.Toffler ijtimoiyotchi va futurolog sifatida. E.Toflerning sivilizatsiyaviy o'zgarishlarga munosabati. E.Toffler: kelajak bilan to'qnashuvning sabab va oqibatlari. E.Toffler «uchinchi to'lqin» nazariyasi va uning

postindustrial jamiyatni tahlil qilishdagi oʻrni. E.Tofflarning bozor munosabatlarini sivilizatsiya oʻzgarishlarga taʼsiri haqidagi ijtimoiy-iqtisodiy qarashlari. E.Toffler sivilizatsiya va madaniyat: anʼanaviylik va zamonaviylik. E.Toffler madaniy hayotning xilma-xilligi va uni hozirda murakkablashib borayotganligi xususida. E.Tofflarning madaniyat va sivilizatsiyaviy taraqqiyot bosqichlari toʻgʻrisidagi gʻoyalarning hozirgi davrdagi ahamiyati.

YANGI HAMDA ENG YANGI DAVR YAQIN VA OʻRTA SHARQ FALSAFASI

Arab maʼrifatparvarligining shakllanishi

Mustamlakachilik siyosatining arab xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, gʻoyaviy-siyosiy va madaniy hayotiga taʼsiri. XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy sharoit va arab maʼrifatparvarligining shakllanishi. Misrda, keyinroq Suriya va Livanda maʼrifatparvarlik gʻoyalari keng avj olishi. Rifoʻat-Taxtoviy qarashlari. Ali Muborak qarashlari. Nosif al-Yozijiy va Butrus al-Boʻstoniylarning maʼrifatchilik faoliyati.

Arab maʼrifatparvarlik gʻoyalarning rivojlanishi

Arab maʼrifatparvarligining asosiy maqsadi ilm-fan va milliy madaniyatni rivojlantirish, xalqni maʼrifatli qilishga yoʻnaltirilgan. Jurjiy Zaydon ijodidagi maʼrifatparvarlik gʻoyalari. Anʼanachilar va islom islohchilari oʻrtasidagi kurash. Qosim Amin ijodida xotin-qizlarning ijtimoiy tengligi masalasining ilgari surilishi. Mustafo Komilning millatparvarlik gʻoyalari. Abdurahmon al-Kavokibiyning qarashlari.

Arab falsafasida personalizm, mantiqiy pozitivizm va ekzistensializm gʻoyalarning shakllanishi

Zamonaviy arab falsafiy tafakkurida personalizm gʻoyalarning shakllanishi. Muhammad Lahbabi arab personalizmining vakili.

Zaki Najib Mahmud tomonidan mantiqiy pozitivizm falsafasining rivojlantirilishi. Abdurahmon Badaviyning ekzistensial falsafasi.

Eronda maʼrifatparvarlik gʻoyalari va falsafiy tafakkurning rivoji

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida Eronda ijtimoiy fikrlarning rivojlanishi. Mirzo Abdurahim Tolibovning falsafiy qarashlari. Zayn al-Obidin Marogʻaiyning ijtimoiy qarashlari. «Sayohatnomaiy Ibrohimbek» asari va uning ijtimoiy ahamiyati. Shams ul-Urafoning maʼrifatparvarlik gʻoyalari. Toqiy Eroniyning falsafiy qarashlari.

Yangi va eng yangi davr Hindiston falsafasi

Milliy uygʻonish davri mafkurasi

Ram Mohan Royning ma'rifiy qarashlari. Caid Ahmad xon – milliy ozodlik harakatining mutafakkiri. Altaf Husayn Holiyning ma'rifiy falsafasi. Shibli No'moniyning ma'rifiy qarashlari. Muhammad Iqbol – ma'rifatparvar mutafakkir sifatida. Abul Kalom Ozodning falsafiy qarashlari.

Neohinduizm falsafasining shakllanishi va rivojlanishi

Ramakrishnaning dunyoqarashi. Svami Vivekanandaning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Aurobindo Ghosh XIX asr oxiri -XX boshlarida Hindistonda boshlangan milliy ozodlik harakatining yirik arboblardan biri. Aurobindo Ghoshning integral vedantasi. Aurobindo Ghoshning falsafiy qarashlarida aql tushunchasi. Uning involyusiya va evolyusiya konsepsiyasi. Ghosh konsepsiyasida inson muammosi. Ghoshning dunyoqarashida bilish muammosi. Din bilan falsafa bir-birini to'ldirishi kerakli haqida.

Hindistonda milliy ozodlik harakati va mustaqillik falsafasi

Mahatma Gandiyning falsafiy ta'limoti. M.Gandiy qarashlarida dinning o'rni: "xudo haqiqatdir" tezisidan "haqiqat xudodir" tezisiga o'tish. Gandiyning axloqiy konsepsiyasida "aximsa" tamoyili. "Zo'ravonlikka qarshi" tamoyili – Gandiy ta'limotining asosiy bandi sifatida.

Rabindranat Tagorning insonparvarlik falsafasi. Javoharlal Neruning falsafiy qarashlari.

Hozirgi zamon Hind falsafasi

Mustaqillik davri falsafasining muammolari. Sarvapalli Radhakrishnan falsafasi. Uning «universal din» konsepsiyasi. «Sanatana dharma» falsafasi.

Neovedantizm falsafasi: Abdul Rahmon, Pravas Jivan Chaudhuri qarashlari.

G'arb falsafasining hind ijtimoiy tafakkuriga ta'siri. Hind falsafasida rasionalistik va gumanistik tendensiyalar.

Yangi va eng yangi davr Xitoy falsafasi

XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmida Xitoy falsafasi

Kan Yuveyning siyosiy falsafasi. Lyan Shuminning ijtimoiy falsafasi. Lyan Sichaoning falsafiy qarashlari. Yan Funing falsafiy qarashlari. Li Dachjao falsafasi.

Hozirgi zamon Xitoy falsafasi

Sun Yatsenning Xitoy davlatini bosqichma-bosqich va har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan uch xalqparvar tamoyil: millatchilik, xalq hokimiyati va xalq farovonligi. Konfusiy ta'limotiga munosabat. Xu Shi – amerikacha pragmatizmi g'oyalarning tashviqotchisi. Mao Szedunning "madaniy inqilobi". Den Syaopingning dunyoqarashi.

Yangi va eng yangi davr koreys falsafasi
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Chosonda
koreys falsafasi

Feodalizm inqirozi va kapitalistik munosabatlarning shakllanishi. Chjusianlikning tanazzuli. Chxve Xan Gi falsafasi. «Tonxak» maktabi.

XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida Koreya falsafasi

Ma'rifatparvarlik va islohot uchun harakatlar. Yaponiya tomonidan Koreyani anneksiya qilish davridagi intellektual muhit. Shimoliy Koreyada falsafa va mafkura rivojlanishining xususiyatlari.

Janubiy Koreyada falsafaning rivojlanishi. Quriya tafakkuriga g'arb falsafasining ta'siri. Konfusiychilik va pragmatizm, dzen va Vitgenshteyn falsafasiga munosabat. Quriya falsafasining an'anaviy tushunchalari bilan global muammolar falsafasining uyg'unlashuvi.

Yangi va eng yangi davrda yapon falsafasi

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Yaponiyada shakllangan falsafiy maktablar

Yaponiyada islohotlarning boshlanishi. Meydzi inqilobi. Yaponiyada ma'rifatparvarlik. Meyrokusya jamiyati. Akademik falsafa.

Kiot maktabi. Nisida Kitaro – Kiot maktabining asoschisi. Uning G'arb fani va texnologiyasi yutuqlarini qabul etish va an'anaviy madaniy qadriyatlarni saqlab qolish dilemmasiga munosabati. Uning "sof tajriba" tushunchasi haqida. N.Kitaro qarashlarida dzen-buddizm va g'arb falsafasining o'zaro ta'siri. Tanabe Madjimaning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Dayseku Teytaro Sudzuki falsafasi.

XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida Yaponiyada falsafiy tafakkur rivoji

Millatchilik mafkurasi. XX asr materializmi. Nakae Tyomin.
Hozirgi zamon yapon falsafasining muhim jihatlari.

IV. MARKAZIY OSIYO, YAQIN VA O'RTA SHARQDA FALSAFIY FIKR RIVOJI

Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq falsafasi tarixiga yondashish metodologiyasi

Markaziy Osiyo, yaqin va O'rta Sharq mintaqasining sivilizasion xususiyatlari. Turkiy, arabiy va forsiyazabon xalqlarning tarixiy va madaniy aloqalari. Islom omili. Sharq falsafasi tarixini davrlashtirishning metodologik asoslari. Ilm-fan va madaniyat rivojiga sivilizasion yondoshuv. Asotir tasavvurlar va diniy-falsafiy qarashlarning paydo bo'lishi. Qadimgi falsafa bosqichi. O'rta asrlar falsafasi. Ma'rifatparlik falsafasi. Yangi va eng

yangi davr Sharq falsafasi. O‘zbekiston falsafa tarixining umumiylik va o‘ziga xos xususiyatlari. Mustaqil O‘zbekiston falsafasining rivojlanish tarixi va istiqboli.

Qadimgi tasavvurlar va diniy-falsafiy bilimlarning paydo bo‘lishi

Qadimgi Markaziy Osiyoda ilk diniy-falsafiy qarashlarining kelib chiqishi. Zado‘shiylik falsafasi. «Avesto»da inson, tabiat haqidagi bilimlarning, ilmi nujum, (astronomiya), tabobat, jug‘rofiya va falsafaga oid fikrlarning, kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi haqidagi ta‘limotning bayon qilinishi. Zardushtiylikning ruh haqidagi ta‘limoti. Moniylik va mazdakiylik diniy falsafiy ta‘limotining shakllanishi va tarqalishi.

Markaziy Osiyoda turkiy bitiklar falsafasi. Ko‘k tangri ta‘limoti. Ko‘k turklarning koinot va olamning yaratilishi haqidagi tasavvurlari. Ko‘k turk haykaltaroshligi ilk o‘rta asrlar O‘rta va Markaziy Osiyo san‘atining yuksak ko‘rinishi sifatida. Qadimgi yozma yodgorliklar. Qadimgi afsona va rivoyatlarda aks etgan falsafiy qarashlar. “O‘g‘uznoma” dostoni va unda aks etgan qadimiy tasavvurlar.

Bitiglar falsafasi. To‘nyuquq, Kul tigin, Bilga xoqon, O‘ngin bitiglari. Ko‘k turk bitiglarining g‘oyaviy-falsafiy xususiyatlari. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida keltirilgan qadimgi turkiy xalqlarning og‘zaki ijodi namunalariga oid ma‘lumotlar. Xalq og‘zaki ijodi va afsonalarda milliy qadriyatlarning aks etganligi.

Markaziy Osiyoga buddaviylikning kirib kelishi va tarqalishi. Markaziy Osiyoning janubiy qismida Kushonlar imperiyasi davrida ilm-fan, san‘at va iqtisodiyotining rivoj topganligidan dalolat beruvchi qazilma yodgorliklarning topilishi.

Markaziy Osiyo xalqlari o‘rta asrlar falsafasining o‘ziga xos xususiyatlari

VIII-IX asrlarda Markaziy Osiyoda islom ilmlarining rivojlanishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari

Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi va rivojlanishi. Qur‘oni Karim va Muhammad (s.a.v.) hadislar ta‘limotining shakllanishi. Hadislarda bayon etilgan islomiy tarbiyaning asosi imon va solih amallardan iboratligi.

Imom al-Buxoriy (810-870)ning musulmon olamida shuhrat qozongan “Al-Jome‘ as-sahih” (“Ishonarli to‘plam”) asari. Unda axloq-odob, fiqh, ilm-ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya, turli marosimlarga bag‘ishlangan hadislar insonning axloqiy kamoloti va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda tutgan o‘rni. Muhaddis asarlarida axloq-odobning asosini tashkil etuvchi ezgulik tushunchasi mohiyatining ochib berilishi.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892) – musulmon olamida mashhur va obro‘li oltita muhaddislardan biri bo‘lganligi. Asarlari orasida “Sunani Termiziy” (“Termiziy sunnatlari”)ning shoh asari ekanligi. Undagi hadislar shaxs ma‘naviy madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, Imom al-

Buxoriy va Abu Iso at-Termiziy asarlarining nashr ettirilishi hamda ularni o'rganishga e'tiborning oshganligi.

Mu'taziliylar oqimi. An'anaviy va islom ilmlari taraqqiyoti. Islom ilmlari, xususan kalom ilmi, uning paydo bo'lish sabablari va vakillari, asosiy bahs-mavzulari hamda maktablari. Ikki yirik kalom maktablari bo'lgan Ash'ariya va Moturidiya ta'limotlarining qiyosiy tahlili. *Abu Mansur al-Moturidiy* (870-944)ning islom dini asoslarini tashkil etuvchi: to'g'rilik, ezgulik, bag'rikenglik va insoniylik g'oyalarini ilgari surganligi hamda Sharq olamida «Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafta sazovor bo'lganligi. Al-Moturidiyning borliq va undagi sababiy aloqadorlik, bilish, ilm va axloq-odobning o'zaro mushtarakligi haqidagi diniy-falsafiy ta'limoti.

Movarounnahrlik olimlar tomonidan rivojlantirilgan islom ilmlarining muhim xususiyati bo'lgan – diniylik va dunyoviylikning, bilim va axloqiy qadriyatlarining o'zaro uyg'unligi, – barkamol shaxsni shakllantirish hamda jamiyat ma'naviy-ma'rifiy yuksalishi, barqaror rivojlanishining negizini tashkil etishi. Aynan shu xususiyatning O'rta asrlar musulmon Sharqida tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy bilimlarning rivojlanishida muhim omil bo'lganligi.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda falsafiy va tabiiy-ilmiy fikrlar rivoji

Abbosiyalar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-tarixiy muhit, tabiiy-ilmiy sohalarning rivojlanishiga sharoit yaratib berilishi. Sharq va Yunon falsafiy tafakkurining o'zaro ta'siri.

Markaziy Osiyo olimlarining faoliyati. "Sharq renessansi" tushunchasi, uning "G'arb renessansi" tushunchasi bilan nisbati.

Ilm-fan rivoji. Bog'dodda "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlar uyi"- "Ma'mun akademiyasi")ning tashkil qilinishi va uning ilm-fan rivojidagi roli. Markaziy Osiyolik olimlarning "Ma'mun akademiyasi"ni tashkil etishdagi o'rni va ilm-fan rivojidagi roli. Mu'taziliy ta'limotining keng tarqalishi. Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar davlatining vujudga kelishi va ularning mintaqa iqtisodiy va madaniy rivojidagi ahamiyati. Iqtisodiy va madaniy yuksalish. Uyg'onish davri va uning xususiyatlari. Xorazmda "Majlis al-ulamo" ("Olimlar majlisi" – "Ma'mun akademiyasi")ning tashkil etilishi va tabiiy-ilmiy ilmlarning rivoji.

Sharq arastuchiligining shakllanishi va rivojlanishi

Abu Yusuf al-Kindiy va Abu Bakr ar-Roziyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari

Abu Yusuf ibn Ishoq al-Kindiy – sharq arastuchiligining dastlabki vakili. Sharq arastuchiligining manbalari, mazmuni, mohiyati va sharq falsafasi tarixidagi o'rni. Sharq arastuchiligining G'arb falsafiy fikrlariga ta'siri. Lotin avveroizmi.

Abu Yusuf al-Kindiy (800-865)ning hayoti va ilmiy merosi. Al-Kindiy Arastu asarlarining sharxlovchisi. Falsafiy atamalarning ishlab chiqilishi, fanlar tasnifi va uning

metodologik ahamiyati. Al-Kindiy metodologik qarashlarida Arastu ta'limotining yangicha talqini. Xudo-birinchi sabab. Sabablar haqida Arastu ta'limotiga yangi g'oyaning kiritilishi. Materiya, shakl, zamon, makon, harakat. Aksidensiya va substansiya. Kosmologik ta'limoti. Al-Kindiy gnoseologik ta'limotida sezgi va tafakkur masalasi, ularning o'zaro munosabati. Haqiqat ta'limoti.

Abu Bakr ar-Roziy (865-925) buyuk olim va mutafakkir. Ar-Roziyning hayoti va ilmiy merosi. Ar-Roziy sharqda atomistik ta'limotning asoschisi. Substansiya va aksidensiya, materiya va shakl munosabatlari haqidagi ta'limoti. Kosmologik ta'limotining mohiyati. Gnoseologik ta'limoti. Sezgilardan tafakkurga o'tish jarayoni. Aqlning mohiyati. Aqlning sezgilar mohiyatidagi o'rni. Aqlning vazifasi. Intitutiv bilish. Nufuz (avtoritet)larga bo'lgan munosabat. Ikki xil haqiqatga bo'lgan munosabat. Ar-Roziy dunyoqarashida inson va uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni masalasi.

Abu Yusuf al-Kindiy va Abu Bakr ar-Roziyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining jahon ilm-fani va falsafiy tafakkuri rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning tabiiy-ilmiy merosi

Muhammad Ibn Muso Xorazmiy (780-850) Sharqning buyuk mutafakkiri, qomusiy olimi. Bag'dodda buyuk "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlik uyi") akademiyasiga rahbarlik qilishi. "Bayt ul-hikmada" Muso Xorazmiyning Ahmad Farg'oniy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy, Abbas Javhariy va boshqalar bilan falakiyot va riyozat bo'yicha adabiyotlarni tarjima qilishlari va tahlil qilishlari. Xorazmiyning matematika sohasidagi buyuk xizmatlari. Muso al-Xorazmiyning riyoziyot va falakiyot ta'limotlarining Beruniy, At-Tusiy, Al-Koshiy, Umar Xayyom va Ulug'beklarning tabiiy-ilmiy ta'limotlariga ta'siri. Muhammad Ibn Muso Xorazmiy tabiiy-ilmiy merosining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

Ahmad Farg'oniyni tabiiy ilmlar rivojiga qo'shgan hissasi

Ahmad Al-Farg'oniy Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy (vaf.861) O'rta asrning buyuk tabiatshunos allomalaridan biri ekanligi. Uning hayoti va ilmiy faoliyati.

Olimning Bag'dodda "Bayt ul-hikma"dagi ijodi. Uning Bag'dod va Damashq shaharlarida olib borgan astronomik tajribalari. Ahmad Farg'oniy iqtidorli muhandis sifatida. Al-Farg'oniyni "Osmon jismlari harakati va yulduzlar ilmi to'plami" asarining tarixiy ahamiyati.

Uning "Usturlobdan foydalanish haqida kitob", "Quyosh soatini yasash" kabi asarlarining bugungi kunda astronomiya fani rivojlanishidagi roli va o'rni. Uning "Geometriya va arifmetika yordamida mukammal shimoliy va janubiy usturloblarni yasash" risolasida geometriya faniga oid yangi fikrlarning shakllanishi. Al-Farg'oniyni tabiiy-ilmiy qarashlarining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

Abu Nasr Forobiyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari

Abu Nasr Forobiy (873-950) Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta Sharqda tugalgan ijtimoiy-siyosiy va falsafiy taʼlimot yaratgan mutafakkir. Forobiy va ilmiy merosi. Forobiy «Ikkinchi muallim». Forobiy ontologik qarashlarining gʻoyaviy ildizlari. Borliqning olti bosqichi – Xudo, osmoniy mohiyatlar, faol aql, jon, shakl, materiya xaqidagi taʼlimoti. Forobiy ontologik va kosmologik taʼlimotida panteizm va neoplatonizm gʻoyalari. Arastu taʼlimotining yangicha talqini. Substansiya va aksidensiya, materiya va shakl munosabatlari. Fanlar tasnifi. Bilishda sezgi va tafakkurning roli va munosabati. Mantiq ilmi va uning ilm-fan rivojidadagi oʻrni. Forobiy oʻrta asrda ijtimoiy falsafa asoschisi. Inson jamoalarining kelib chiqish sabablari. Inson jamoalarining shakllari va tuzilishi. Inson jamoalarining mohiyati, maqsadi va intilishi jihatdan farqlanishi. Fozil va johil jamoalar. Davlatning kelib chiqish sabablari. Ijtimoiy kelishuv. Orzudagi jamoa va uning hukmronlik usuli. Inson hayotining mazmuni va baxt-saodatga erishuv vositalari. Forobiyning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan oʻrni va ahamiyati.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning panteistik falsafasi va tabiiy ilmlar rivojiga qoʻshgan hissasi

Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vaf. 997) – X asrning qomusiy ilmlarga ega boʻlgan yirik mutafakkiri. Olim dunyoqarashining shakllanishiga qadimgi yunon falsafasi, Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Bakr ar-Roziy hamda mutaziliylar taʼlimotining taʼsiri. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning peripatetik falsafasi. Borliqning moddiy asosi, makon va zamon bilan oʻzaro aloqadorligi. “Aql” va uning turlari haqidagi taʼlimoti. Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan yagona asari – “Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kalitlari”) arab tilida yozilgan ensiklopedik mazmundagi manba ekanligi. Uning birinchi qismi shariat va u bilan bogʻliq arab ilmlariga, ikkinchi qismi – yunonlar va boshqa xalqlar ilmlariga bagʻishlanganligi.

Asarda keltirilgan Oʻrta asrlar Markaziy Osiyodagi falsafiy fikrlar va ilmlar tasnifining fan tarixini tadqiq etishda hamda keyingi ilm-fan rivojidadagi ahamiyati.

Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari

Abu Rayhon Beruniy (973-1048)ning hayoti va ilmiy merosi. Beruniy – oʻrta asrning ensiklopedik olimi, fan tarixchisi. Abu Rayhon Beruniyning falsafiy dunyoqarashi. Beruniy ontologik qarashlarining dialektik mohiyati. Kosmologik va kosmogonik taʼlimotida ilmiylik anʼanalari. Beruniy dunyoqarashida dialektika unsurlari. Beruniy — tajribaviy metod asoschisi. Aqlning mohiyati va vazifasi. Haqiqat mezoni masalasi. Inson ongida notoʻgʻri bilimlar yuzaga kelishining obʻektiv va subʻektiv sabablari. Nufuz (avtoritet) larga boʻlgan munosabat. Ikki xil haqiqat masalasi.

Beruniyning ijtimoiy falsafasi. Odanning kelib chiqish tarixi. Eralar tarixi. Har bir eraning odam va havosi haqida. Inson jamoalarining kelib chiqish sabablari. Inson jamolari tarixida

buyuk tabiiy hodisalarning roli. Turli halqlar, tabaqalar va tillarning kelib chiqishi haqida. Jamiyat taraqqiyotida geografik muhitning ahamiyati. Davlatning kelib chiqishi sabablari. Davlatni boshqarish shakllari. Jamiyat va davlat ravnaqini belgilovchi omillar. Beruniy axloqiy qarashlarining insonparvarlik mohiyati. Oila va nikoh masalasi. Iqtisodiy masalalar. Jamiyat iqtisodiy hayotida pul va savdning ahamiyati. Beruniy ijodida diniylik va dunyoviylikning uyg'unligi.

Beruniyning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

Abu Ali Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va falsafiy merosi

Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning hayoti va ilmiy merosi. Tabiiy-ilmiy qarashlari va falsafiy dunyoqarashi. Ibn Sino ontologik ta'limotida neoplatonizm unsurlari. Ishrokiya (ilohiy nurlanish) falsafasi. Moddiy olam tuzilishi va rivoji haqidagi ta'limot va unda dialektika unsurlari. Kosmologik ta'limoti. Borliqdagi sababiy bog'lanishlar haqida. Ibn Sino gnoseologik qarashlari va uning metodologik ahamiyati. Sezgi va tafakkur va ularning o'zaro munosabati. Tashqi va ichki sezgilar. Tajriba haqida. Mantiq va uning bilishdagi o'rni. Ilmlar tasnifi.

Ibn Sinoning ijtimoiy falsafasi. Insonning mohiyati va uning jamiyatda tutgan o'rni haqida. Ibn Sino axloqiy qarashlarining insonparvarlik mohiyati. Alloma ijodida diniylik va dunyoviylikning uyg'unligi.

Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

Ismoil Jurjoniy (vaf.taxm.1137) – Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk allomalarning ilmiy izlanishlari va an'alarini davom ettirgan tabiatshunos olim va tabib. Uning “Zahirai Xorazmshohiy” (“Xorazmshoh xazinasini”), “Kitob tadbir yavm va layl” (“Kunduz va tunning tadbiri kitobi”) asarlari va ulardagi tabiiy-ilmiy va falsafiy g'oyalar. Olamning to'rt moddiy unsurdan tashkil topganligi, ularning bir-biriga qarama-qarshiligi va sifatlarining doimiy o'zgarishda bo'lishligi. Tirik va notirik tabiatning o'zaro aloqadorligi haqida. Inson hayotining davrlashtirilishi. Fanlarning tasnifi masalasi.

Ismoil Jurjoniy tabiiy-ilmiy va ma'naviy merosining zamonaviy ilm-fan rivojida tutgan o'rni.

O'rta asrlarda ijtimoiy-falsafiy, axloqiy g'oyalarning rivojlanishi

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari va undagi ijtimoiy-falsafiy, axloqiy g'oyalar

Yusuf Xos Hojib (taxm. 1019-1021 y.tug'.) O'rta asr Sharqining yirik mutafakkiri. Uning mashhur “Qutadg'u bilig” asarida axloq, bilim, ma'rifat, hulq-odob, ta'lim-tarbiyaning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni masalalarining yoritilishi. Davlat va uni boshqarish, mukammal jamiyat haqidagi fikrlari. Inson aql-zakovati va ilmning ulug'lanishi. Tabiiy ilmlarni o'rganish, kasb-hunar egallash, ta'lim-tarbiyaning zarurligi

haqida. Yusuf Xos Hojib tomonidan ilgari surilgan gʻoyalarning komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati.

Maxmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” asari va undagi ijtimoiy-falsafiy, axloqiy gʻoyalar

Maxmud Qoshgʻariy XI asrda yashagan yirik mutafakkir. “Devonu lugʻatit turk” asarida lugʻatshunoslik, til tarixiga oid masalalar bilan birga, unda ijtimoiy falsafiy, axloqiy masalalar ham yoritilganligi. Asarda turkiy xalqlarning tarixi, ilm-maʼrifat, taʼlim-tarbiya, kasb-hunarga ega boʻlishlikka oid, shuningdek halol mehnat qilish, saxiylik va insonparvarlik haqidagi qimmatli fikrlari. Ilm-fan, bilimni axloq va hulq-odob bilan uygʻun holda boʻlishi zarurligi haqidagi fikrlarining zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi oʻrni.

Mahmud az-Zamaxshariyning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari

Abu-l- Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariy (1075-1143) – buyuk mutafakkir. Tilshunoslik, lugʻatshunoslik, adabiyot, aruz, geografiya, tafsir, hadis, fiqh va ilm al-qiroatga oid ellikdan oid asalarning muallifi. Arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm fanning boshqa sohalarida ham ijod etgan olim. “Al Kashshof” asari mutaziliya taʼlimoti va uning izdoshlari haqidagi ishonchli manba ekanligi. Mutafakkir tomonidan inson aql-zakovatining, maʼnaviy-axloqiy goʻzalligining ulugʻlanishi. Diniy va dunyoviy ilmlarning uygʻunligi haqidagi gʻoyalari hamda ularning ilm-fan, madaniyatni oʻrganishdagi metodologik ahamiyati.

Markaziy Osiyoda tasavvuf falsafasining tarqalishi

Oʻrta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining mohiyati, uning yirik namoyandalari va oqimlari. Ularda inson kamoloti masalasining qoʻyilishi.

Tasavvuf taʼlimotining kelib chiqishi va Markaziy Osiyoda tarqalishi. *Abu Homid Gʻazzoliy* (1059-1111) tasavvuf nazariyotchisi sifatida. Abu Homid Gʻazzoliyning hayoti va ijodi. Gʻazzoliy dunyoqarashi va ilohiyoti. Asarlari: «Ihyoi ulum ad-din» («Diniy ilmlarning jonlanishi»), «Tahofut ul-falosifa» («Faylasuflarni rad etish»), «Kimyoi saodat» («Baxt-saodat yoki hikmat kaliti»), «Munqiz minal zilol» («Adashishlardan saqlovchi»). Ularning mazmuni, mohiyati va tarixiy ahamiyati.

Yusuf Hamadoni (1048-1140) ning hayoti, ijodiy taʼlimoti. Yusuf Hamadoni imon, eʼtiqod, xalollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik toʻgʻrisida. Yusuf Xamadoni tariqatining Markaziy Osiyoda tarqalishi.

Abdulxoliq Gʻijduvoni (taxm. 1103-1179) ning hayoti va ijodi. Tasavvufiy qarashlarining “vahdati vujud” taʼlimotiga asoslanganligi. Insonda ikki olam: “Olami asgʻar” (mikroolam) va “Olami akbar” (makroolam)ning aks etganligi. Tasavvuf yoʻlini tanlagan soliklar dunyoviy va diniy ilmlarni egallashi va shu yoʻl bilan yaxshi xislat va

fazilatlarni kasb qilib komillikka erishishi mumkinligi. G'ijduvoniyning ilm, kasb-hunar egallash, nafsni tiyish, halol va pok bo'lish haqidagi g'oyalarining tarbiyaviy ahamiyati.

Yassaviya tariqati. Hoja Ahmad Yassaviy (1041- taxm. 1166) ning hayoti va ijodi. Yassaviyning «Devoni hikmat» asaridagi yuksak axloqiy poklik va insonparvarlik, nafsni tiyish, halol va pok bo'lish haqidagi g'oyalarining shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'rni.

Qubraviya tariqati. Najmiddin Qubro (1145-1221)ning hayoti va asarlari. Najmiddin Qubroning zikri xufiyya usuli inson va koinotning uyg'unligiga erishish vositasi sifatida. Kubroviya ta'limotida komillikka erishishning asosiy qoidalari va uning ijtimoiy ahamiyati.

Jaloliddin Rumiy (1212-1286)ning hayoti va ma'naviy merosi. Rumi ta'limotida sufizm amaliyoti va nazariyasining uyg'unligi. Rumi - ulug' orif va shoir. Rumiyning «Ichingdagi ichingdadir» asarida axloq go'zalligi, dunyoning o'tkinchi ekanligi, sababiyat, moddiy dunyo shahvatiga berilmaslik, ilm qadri, sabr-qanoat haqidagi g'oyalari tahlili. «Masnaviy Ma'naviy» asarida surat va ma'no, kull va juz', asl va soya, taqlid va taxqiq masalalari. Podshoh sifatleri, pir sifatleri haqida. Rumi ijodida komil inson tasviri. Jaloliddin Rumi ma'naviy mersining ijtimoiy ahamiyati.

Hojagon tariqati va Naqshbandiya. Bahovuddin Naqshband (1318-1389) ning hayoti va ta'limoti. Naqshbandiya ta'limotidagi axloqiy g'oyalar. Naqshbandiyaning Hojagon silsilasidagi mavqei. Bahouddin Naqshband va Hojagon silsilasi pirlarining o'z-o'zini nazorat qilish, luqmai halol bilan yashash tamoyili. Naqshbandiyada suhbat va muloqot. Naqshbandiyada ruh tarbiyasi, qanoat, mulkka, boylikka, ilm va hunar o'rganishga munosabat, komil inson g'oyasi. Naqshbandiyaning davlat va siyosatga kirib borishi (Hoja Ahror Valiy). Silsila davomi.

Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining ijtimoiy ahamiyati.

Burxoniddin Marg'inoniy – O'rta asrlar Sharqining buyuk huquqshunos olimi

Burxoniddin Marg'inoniy (1123-1197)ning hayoti va ijodi. Sharq olamida "Burxoniddin va milla", ya'ni "Din va millatning hujjati" degan yuksak unvonga sazovor bo'lganligi. Uning ellik yetti kitobdan iborat "Hidoya" – "To'g'ri yo'l" asarining musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e'tirof etib kelayotganligi.

Ahmad Yugnakiyning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari

Ahmad Yugnakiy – XII asrning oxiri –XIII asrning birichi choragida yashab ijod etgan, "Hibat ul-Haqoyiq" asari bilan mashhur bo'lgan o'rta asr mutafakkiri. Asarda ilgari surilgan faqat ilmi insongina komil inson bo'lishi mumkinligi; bilim ezgulik va yaxshilikning asosi; nodonlik, johillik esa har qanday qabixlik va yomonliklarning negizi ekanligi haqidagi fikrlari. Hukmdorlar va mansabdor shaxslarning xulq-odobiga qo'yiladigan axloqiy talablar. Mutafakkir ma'naviy-ma'rifiy qarashlarining ijtimoiy ahamiyati.

Amir Temur va temuriylar davrida tabiiy-ilmiy va ijtimoiy falsafiy fikrlar rivoji

Sa'duddin Taftazoniy va Mir Said Sharif Jurjoniylar tomonidan falsafa va mantiq ilmining rivojlantirilishi

Temuriylar hokimiyatining (1370-1506) o'rnatilishi. Ilm-fan rivojiga e'tibor. «Temur tuzuklari» – buyuk sarkarda harbiy yurishlarining solnomasi - ijtimoiy qarashlarining majmui sifatida. Amir Temur davlat va davlatni boshqarish, kengashib ish yuritishning afzalliklari to'g'risida. Ijtimoiy tabaqalar, ularga xos xususiyatlar. Davlat arboblari qo'yiladigan talablar. Shariat-davlatni boshqarish asosi sifatida. Soliq va jarima, taqdirlash va jazolash masalalari. Qonun ustuvorligi masalasi. «Temur tuzuklari»da insonparvarlik va adolat g'oyalari.

Sa'duddin Taftazoniy (1322-1392)ning islom falsafasi, kalom, mantiq, handasa, she'riyat, arab tili grammatikasi sohasidagi ilmiy izlanishlari va asarlari. Tabiatdagi sabab-oqibat aloqadorligi, bilish nazariyasi, ong va uning belgisi nutq bilan bog'liqligi haqidagi falsafiy qarashlari.

Mir Said Sharif Jurjoni (1339-1413)ning falsafiy va mantiqiy qarashlari. Sa'duddin Taftazoniy va Mir Said Sharif Jurjoni ma'naviy merosini tadqiq etishning ilmiy-metodologik ahamiyati.

Mirzo Ulug'bek va uning ilmiy maktabi

Mirzo Ulug'bek (1394-1449)ning hayoti va ilmiy merosi. "Ziji Kuragoniy" da olam manzarasi. Kosmologik ta'limoti. Borlikdagi sababiy bog'lanishlar haqida. Ilmiy tajriba haqida. Mirzo Ulug'bekning siyosiy faoliyati va ijtimoiy-ma'rifiy qarashlari va ularning gumanistik xarakteri. Mirzo Ulug'bekning ilmiy maktabi.

Ali Qushchi (1403-1474)ning hayoti va ilmiy merosi. Falakiyot va riyoziyotga oid ilmiy ishlari. "Hisob risolasi", "Astronomiya risolasi", "Matematika va astronomiya jug'rofiyasi" asarlaridagi tabiiy-ilmiy g'oyalar.

Mirzo Ulug'bek va uning maktabi vakillarining tabiiy-ilmiy qarashlarining dunyoqarashlik va ilmiy-metodologik ahamiyati.

Abdurahmon Jomiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari

Abdurahmon Jomiy (1414-1492) hayoti va adabiy merosi. «Haft avrang», «Bahoriston», «Xiradnomai Iskandar» asarlari va g'azallaridagi ijtimoiy-falsafiy va axloqiy-didaktik masalalar. Jomiyning ideal jamiyat haqidagi ta'limoti. Odil shoh g'oyasi. So'fizm g'oyalarining Jomiy dunyoqarashiga ta'siri. Borliq haqidagi ta'limotida olamning birligi masalasi. Yagona ilohiy substansiyani o'zini namoyon qilish usuli. Panteizm elementlari, tabiatning ilohiylashtirilishi va ulug'lanishi. Ijtimoiy-axloqiy qarashlari. Ideal jamiyat haqidagi ta'limoti. Gumanistik g'oyalari. Jomiy ma'naviy merosining tarixiy ahamiyati.

Alisher Navoiyning falsafiy dunyoqarashi va ma'naviy merosi

Alisher Navoiy (1441-1501)ning hayoti va ma'naviy merosi. Mutafakkir dunyoqarashiga sufizm nazariy g'oyalarning ta'siri. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-Qulub» «Xayrat-ul-abror» «Lison-ut-tayr asarida yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, adolat va haqiqat masalalarining yoritilishi. Inson va uning jamiyatdagi o'rni masalasi. Moddiy va ma'naviy boylik dilemmasining hal qilinishi. Navoiy ijodida insonparvarlik va bag'rikenglik g'oyalari. Navoiy dunyoqarashida imkoniyat va shakl, umumiy aloqadorlik va birlik masalalari. Bilish nazariyasi. Ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Davlatni boshqarishda podsholik shaklining asosiy tamoyillari va talablari. Foydali va zararli urushlar haqida. Navoiyning axloqiy qarashlari. Alisher Navoiy ma'naviy merosining madaniyat va sivilizatsiya rivojidagi ahamiyati.

Jaloliddin Davoniyning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari

Jaloliddin Davoniy (1427-1502)ning hayoti va ilmiy merosi. Falsafa, mantiq, fiqh, axloqshunoslik, riyoziyot, geometriya sohalaridagi izlanishlari va risolalari. Davoniy amaliy falsafaning vazifasi va ahamiyati haqida. Inson tabiatining tahlili. "Axloqi jaloliy" asari, unda axloq mezonlarining ishlab chiqilishi. Ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganish, ta'lim-tarbiya olishning targ'ib qilganligi. Ideal jamiyat va odil podshoh haqidagi qarashlari. Mutafakkir ijodining jamiyat ma'naviy-madaniyatining yuksalishida tutgan o'rni.

Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosi

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505)ning hayoti va ma'naviy merosi. Allomaning falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, tarix, kimyo, astronomiya, matematika, musiqa, voizlik, she'r san'ati, din tarixi, fiqh, tibbiyot kabi fanlarga oid asarlar yozganligi. Asarlarida inson tabiatining tahlili. Jamiyat va jamiyat qonunlari, odil podshohlar haqida. Jamiyatni adolatli boshqarishda davlat xizmatchilari (saroy a'yonlari) ning vazifalari va ularga xos xislatlar. Koshifiy dunyoqarashiga tasavvuf ilmining ta'siri. Koshifiyning axloq falsafasi. Koshifiy ijtimoiy-axloqiy qarashlaridagi insonparvarlik g'oyalari.

Zahiruddin Muhammad Boburning ma'naviy merosi

Zahiruddin Muhammad Bobur (1483-1530)ning hayoti va ijodi. «Boburnoma» asari tarixiy va adabiy manba sifatida. Asarda davlat rahbarlari va ularning olib borgan siyosatlarining tahlili. "Mubayyin" nomli asarida o'z davrining soliq tizimi, soliq yig'ish qonun-qoidalarining yoritib berilganligi. Bobur g'azallarida yaxshilik, haqiqat, adolat g'oyalarning kuylanishi. Insonparvarlik va bag'rikenglik g'oyalarning jamiyat barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyati.

Mirzo Bedilning falsafiy dunyoqarashi

Mirzo Bedil (1644-1721)ning hayoti va ijodi. Bedilning she'riyat yulduzlari – Sa'diy, Attor, Hofiz, Navoiylarning an'analarini davom ettirganligi. Jahon madaniyati xazinasidan chuqur joy olgan «Chor Unsur» (To'rt element), «Irfon», «Nuqot» kabi asarlari. Panteistik ta'limoti Bedilning kalom va so'fizmgga munosabati. Bedil ijodida inson va insoniylik masalasi. Bilish falsafasi. Jamiyat va davlat, axloq-odob haqidagi qarashlari. Bedil ijodining tarixiy ahamiyati.

Yusuf Qorabog'iy va Muhammad Sharif Buxoriyning tabiiy-ilmii va falsafiy qarashlari

Yusuf Qorabog'iy (1563-1647)ning hayoti va ijodi. Mutafakkir dunyoqarashining shakllanishiga qadimgi yunon falsafasi va Sharq alloma va faylasuflari Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Imom G'azzoliy, Tusiy, Taftazoniylarning ta'siri. Sharq peripatetizmining davomchisi. "Vojib" va "mumkin" tushunchalarining talqini. Cheksizlik va cheksiz bo'linish haqidagi tasavvurlari. Falsafiy dunyoqarashining panteistik xarakteri.

Qorabog'iyning jamiyat va inson haqidagi falsafiy qarashlari.

"Al-Mavlaviy" taxallusi bilan mashhur bo'lgan Muhammad Sharif Buxoriy (vaf.1697)ning hayoti va ma'naviy merosi. Olamning tuzilishi, harakat, makon va zamon, inson va jamiyat haqidagi qarashlari. Gnoseologik ta'limoti. "Shohlar uchun foydali ma'lumotlar" risolasining asosiy g'oyalari. Buxoriy axloqiy ta'limotining insonparvarlik mohiyati.

Markaziy Osiyoda ma'rifatchilik falsafasining rivojlanishi XIX-asr boshida Markaziy Osiyoda ijtimoiy - falsafiy fikrlar

XIX asr boshida Qo'qonda Markazlashgan feodal davlatining qaror topishi. Maxmur Gulxaniy, Ogahiy, Xorazmiy kabi shoirlarning dunyoqarashlari, yaxshilik va adolat to'g'risidagi fikrlari. Ularning baxt-saodat, erkinlik, hurfikrlik haqidagi g'oyalarining ahamiyati. Avaz O'tarning qarashlari.

An'anaviy ma'rifatchilik. Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Zavqiyning ma'naviy merosi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ma'rifatchilik va jadidchilik harakatining ilm-fan va madaniyat rivojiga ta'siri

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol. Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan istilo etilishi. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlakachilik siyosatiga qarshi xalq ozodlik harakatining kuchayishi. Milliy ongni uyg'otishga yo'naltirilgan ma'rifatchilik g'oyalari va jadidchilik harakatining avj olishi.

Ahmad Donish(1827-1897)ning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy qarashlari. Uning «Navodir ul-vaqoe» asarida ijtimoiy-falsafiy fikrlarning bayon etilishi. Ahmad Donish

davlatni boshqarish va uning shakllari to'g'risida. Uning axloqiy-estetik qarashlari va ularning ahamiyati.

Markaziy Osiyolik mutafakkirlar **Berdaq** (1827-1900) va **Sattorxon Abdulg'afforov**(1843-1901)ning asarlaridagi tabiiy-ilmiy hamda falsafiy g'oyalar. Ularning jamiyat taraqqiyotini ilm-fan rivoji va xalqni ma'rifatli qilish bilan o'zaro uyg'unlikda ko'rilganligi. Ularning ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy g'oyalarining xalqning milliy o'zligini shakllanishiga ta'siri.

Jadidchilar harakatining nazariyotchilaridan biri **Mahmudxo'ja Behbudiy** (1875-1919) tomonidan dunyoviy bilimlar va madaniyatni targ'ib qilinishi. Behbudiy publisistik asarlarida millat hayotidagi illatlar va ijtimoiy masalalarning tahlili. Behbudiyning drammatik asarlarida axloqiy, ijtimoiy, estetik g'oyalarning o'ziga xos ifodalanishi.

Munavvar Qori (1878-1931), Abdulla Avloniy(1878-1934)larning mamlakatni taraqqiy ettirish maqsadida olib borgan ishlari va ijtimoiy-siyosiy fikrlari. Ularning Turkistonda milliy mustaqillik uchun harakatlarning rivojlanishidagi faol xizmatlari.

Abdurauf Fitrat (1884-1938)ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Fitrat tomonidan Turkiston ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi salbiy illatlarni bartaraf etish choralariga oid takliflari. Diniy mutaassiblik va aqidaparastlikka qarshi islom dini asoslarini ilmiy-nazariy o'rganishni targ'ib etilishining ahamiyati. «Rahbari Najot» asaridagi ijtimoiy g'oyalar. «Oyna» asarida milliy oilaviy muammolar va munosabatlar tahlili.

Abdulhamid Cho'lpon (1896-1937) ijodida ijtimoiy-siyosiy fikrlar, millatparvarlik g'oyalari. «Kecha va kunduz» romanida mustamlaka siyosatiga nafratning aks etishi va ijtimoiy-siyosiy hayotning tahlili. Cho'lpon nazmiy ijodida tun va zulmatning g'oyaviy munosabati. XX asrning 20-yillarida O'zbekistonda «bosqinchilik» deb nomlangan milliy ozodlik harakatining mohiyati. Jadid ziyolilari istibdod siyosatining qurboni bo'lganligi va ular ijodining bugungi kundagi ahamiyati.

Mustaqil O'zbekistonda tabiiy-ilmiy va falsafiy fanlarning rivojlanishi

XX asrda O'zbekistonda falsafiy fikr rivoji

Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy merosini o'rganish. I.Mo'minovning ilmiy faoliyati. O'zbekistonda falsafiy tashkilotlarning ahamiyati. Ijtimoiy-falsafiy, ilmiy-metodologik masalalarning o'rganilishi. O'zbek ilm-fani va falsafasining rivojlanishida Qori Niyoziy, Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullaev, Sa'di Sirojiddinov, Obid Sodiqov, Yahyo G'ulomov, Bo'riboy Ahmedov, Muzaffar Xayrullaev, Mubin Baratov, Xaydar Pulatov, Jondor Tulenov, Omonulla Fayzullaev, Said Shermuhamedov, Matbua Ahmedova kabi olimlarning o'rni.

Bugungi kunda o'zbek falsafasi oldida turgan dolzarb masalalar, ularning jamiyatning barqaror rivojlanishi va ma'naviy-ma'rifiy yuksalishiga ta'siri.

Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida o‘rni

Markaziy Osiyoning uch ming yil davomida Sharq va G‘arb sivilizatsiyasi va madaniyatini bog‘lovchi chorraha bo‘lib kelganligi. Madaniyatlararo muloqotda milodgacha bo‘lgan II asrdan milodiy XV asrga qadar Markaziy Osiyodan o‘tgan qadimiy xalqaro transport arteriyasi vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va O‘rta va Yaqin Sharq, O‘rta Yer dengizi mintaqasi kabi hudud va mamlakatlarni bog‘lab kelgan Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati. O‘rta asrlarda mintaqamizda madaniyat va ta‘lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san‘at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste‘dodli avlodlar to‘lqinining paydo bo‘lishi va voyaga yetishi – iqtisodiyot, qishloq va shahar xo‘jaligining ancha jadal o‘sishi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo‘llar qurilishi, yangi karvon yo‘llarining ochilishi, va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta‘minlanishi bilan bog‘liq bo‘lganligi.

Markaziy osiyolik olimlar tomonidan qilingan kashfiyotlarning jahon ilm-fani rivojiga ta‘siri. Sharq uyg‘onish davrining muhim omillari va G‘arb uyg‘onish davrining ilmiy-ma‘naviy jihatdan tayyorlashdagi o‘rni. Sharqning ulug‘ allomalari va mutafakkirlarining kashfiyotlari zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot poydevori.

Buyuk ajdodlarimizning ma‘naviy jasorati – kelajak avlod uchun tarbiya va ibrat manbai. O‘shib kelayotgan avlodni har tomonlama yetuk, komil inson etib tarbiyalashda tarixiy xotira, madaniyat, ma‘rifat, buyuk allomlarimizning ilmiy merosining roli.

O‘zbekistonning milliy mustaqillikka erishgandan so‘ng, boy tariximiz, bebaho madaniy merosimizning tiklanishi va boyitilishi. Sharq alloma va mutafakkirlarining ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma‘naviy mulki. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosining xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan e‘tirof etilishi. Sharqshunos-faylasuflar tomonidan Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida o‘rnini o‘rganishning dolzarb masalalari.

Imtihonga kiritilishi mumkin bo‘lgan tahminiy mavzular:

I. QADIMGI DUNYO FALSAFASI

1 -BLOK

1. Qadimgi Sharqda asotir (afsonaviy) tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo‘lishi.
2. Qadimgi Misrda falsafiy fikrlarning paydo bo‘lishi.
3. Shumer va Bobilda ijtimoiy tafakkur.
4. Qadimgi Turon va Eron xalqlari tafakkuri.”Avesto”dagi falsafiy g‘oyalar.
5. Qadimgi turkiy bitiklar falsafasi.
6. Qadimgi Hindiston falsafasi.Vedalar falsafasi.

7. Upanishadlarda falsafiy qarashlari.
8. Buddaviylik diniy – falsafiy ta’limoti.
9. Jaynizm diniy – falsafiy ta’limoti.
10. Mumtoz hind falsafiy maktablari: Chorvoqlar, Lokayata, Yoga.
11. Mumtoz hind falsafiy maktablari: Vaysheshika, Nyaya, Mimansa, Vedanta, Sankhya.
12. Qadimgi Xitoyning asosiy falsafiy maktablari. Umumiy tavsif.
13. Konfusiy va Konfusiychilikda o‘tmishni muqaddaslashtirishga munosabat.
14. Konfusiyning axloq falsafasi.
15. Konfusiychilikda davlatni boshqarish masalalarining qo‘yilishi.
16. Moizm ta’limoti.
17. Daosizm. Lao – szi qarashlari va “Dao de szin” kitobi.
18. Dao dunyoning ibtidosi, asosi va qonuni.
19. Daosizmning ijtimoiy – axloqiy ta’limoti.
20. Legizm maktabi.
21. Milet falsafa maktabi.
22. Efesslik Geraklit – dialektikaning asoschisi.
23. Pifagor falsafasi.
24. Suqrot falsafasi.
25. Demokritning atomistik falsafasi.
26. Aflotun falsafasi va uning ijtimoiy-gnoseologik ildizlari.
27. Arastuning axloqiy qarashlari.
28. Sofistlar qarashlarida borliq masalasi.

II. O‘RTA ASR G‘ARB FALSAFASI

2 -BLOK

1. O‘rta asr G‘arb falsafasining teotsentrik mohiyati va rivojlanish bosqichlari.
2. Xristianlikning patristika davri va Avgustin ta’limoti.
3. O‘rta asr G‘arb sxolastikasi. Realizm va nominalizm o‘rtasidagi baxs.
4. Anselm Kenterberiyскийning sxolastik realizmi.
5. Per Abelyar va uning cherkov va ortodoks sxolastikaga qarshi kurashi.
6. Foma Akvinskiy ta’limoti.
7. XIII asrda Yevropada nominalizmning rivoji. R. Bekon va D. Skott qarashlari.
8. Yevropada Uyg‘onish davri falsafasining xususiyatlari.
9. Nikolay Kuzanskiyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari.
10. N. Kopernikning geliotsentrik ta’limotning asosiy ilmiy tamoyillari.
11. Jordano Bruno koinotning cheksizligi haqida.
12. G. Galileyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari..
13. Nikola Makiavelli – ideal jamiyat haqida.
14. Rene Dekart metafizikasi.

15. Tomas Gobbs – falsafaning predmeti haqida.
16. Benedikt Spinoza panteizmi.
17. Jon Lokk falsafasi.
18. F. Bekonning induktiv metod haqidagi ta'limoti.
19. R. Dekartning uslub haqidagi ta'limoti.
20. T. Gobbsning bilish nazariyasi.
21. T. Gobbsning ijtimoiy falsafasi.
22. B. Spinozaning substansiya, atribut va moduslar haqidagi ta'limoti.
23. B. Spinozaning axloqiy ta'limoti.
24. J. Lokkning birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi ta'limoti.
25. J. Lokkning ijtimoiy falsafasi.
26. G. Leybnisning monodologiyasi.
27. G. Leybnis ta'limotida mantiq masalalari.
28. J. Tolandning materiya haqidagi ta'limoti.
29. J. Berklining hissiyot haqidagi ta'limoti.
30. D. Yumning sababiyat haqidagi ta'limoti.
31. Volterning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
32. J. J. Russoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
33. Lametrining ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
34. Fransuz qomusini yaratilishida D. Didroning o'rni.
35. Gelvesiyning jamiyatda dinning o'rni va roli haqidagi fikrlari.
36. Golbaxning "Tabiat tizimi" asaridagi falsafiy g'oyalar.
37. I. Kantning tanqidiy davrgacha bo'lgan dunyoqarashi.
38. I. Kantning axloqiy metafizikasi.
39. G. V. Gegel dialektikasi, uning ahamiyati.
40. Gegelning falsafiy sistemasi va uning asosiy qismlari.
41. Gegelning tarix falsafasi.

III. YANGI VA ENG YANGI DAVR FALSAFASI

3 -BLOK

42. Baden maktabi falsafasi.
43. Neogegelchilikning vujudga kelishi va rivoji.
44. Fransiyada strukturalizmning vujudga kelishi, evolyusiyasi va yo'nalishlari.
45. Mantiqiy pozitivizmning rivoji.
46. Lingvistik tahlil falsafasi.
47. Neopozitivizm va postpozitivizm.
48. Postpozitivizm da rasionalizm muammosi.
49. Fransiyada ekzistensializmning rivoji.
50. Falsafiy antropologiyaning shakllanishi, yo'nalishlari va g'oyaviy negizlari.
51. Poststrukturalizmning shakllanishi ilmiy-nazariy negizlari.

52. Postmodernizmning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasi.
53. Neotomizm metafizikasi.
54. Falsafiy hermenevtikaning vujudga kelishi, rivoji, gʻoyaviy asoslari.
55. Fenomenologik hermenevtikaning vujudga kelishi va rivoji.
56. E. Frommning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
57. K. Yungning inson haqidagi qarashlari va Z. Freyddan farqi.
58. «Uchinchi toʻlqin falsafasi». Elvin Toffler – «Uchinchi toʻlqin» oqimining yirik namoyandasi.
59. Arab maʼrifatparvarligining shakllanishi va rivojlanishi.
60. Zamonaviy arab falsafiy tafakkurida personalizm gʻoyalari shakllanishi.
61. Zamonaviy arab falsafiy tafakkurida mantiqiy pozitivizmning rivojlantirilishi.
62. Eronda maʼrifatparvarlik gʻoyalari va falsafiy tafakkurning rivojining ijtimoiy ahamiyati.
63. Yangi va eng yangi davr Hindiston falsafasini oʻrganishning metodologik masalalari.
64. Hindistonda milliy uygʻonish davri mafkurasi.
65. Neohinduizm falsafasining shakllanishi.
66. Aurobindo Gxoshning falsafiy qarashlari.
67. Mahatma Gandiyning falsafiy taʼlimoti.
68. Hindistonda milliy ozodlik harakati va mustaqillik falsafasi.
69. Zamonaviy hind falsafasining muammolari.
70. XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmida Xitoy falsafasi.
71. Hozirgi zamon Xitoy falsafasi.
72. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Chosonda koreys falsafasi.
73. XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida Koreya falsafasi.
74. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Yaponiyada falsafa rivoji.
75. XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida Yaponiyada falsafiy tafakkur rivoji.

IV. MARKAZIY OSIYO, YAQIN VA OʻRTA SHARQDA FALSAFIY FIKR RIVOJI

4 -BLOK

1. Oʻrta asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta Sharq mintaqasining sivilizasion xususiyatlari.
2. Qadimgi Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning maʼnaviy qadriyatlari aks etgan yozma yodgorliklar.
3. Buddaviylik diniy-falsafiy taʼlimotining Markaziy Osiyoga yoyilishi.
4. Mahmud Qoshgʻariyning «Devonu lugʻotit turk» asarida keltirilgan xalq ogʻzaki ijodi va afsonalari da milliy qadriyatlarning aks etganligi yoritish.

5. Turkiy xalqlarning Kultigin, Bilga xoqon, To‘nyuquq, Ungin, Kulichur, Moyunchur bitiktoshlaridagi diniy-falsafiy g‘oyalar.
6. Mutaziliya ta‘limotining shakllanishi va falsafiy tafakkur rivojiga ta‘siri.
7. Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy ilmlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishida tarixiy, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoit, madaniy-ma‘naviy omillar.
8. Markaziy Osiyoda kalom falsafasining rivojlanishi.
9. Ikki yirik kalom maktablari bo‘lgan Ash‘ariya va Moturidiya ta‘limotlarini qiyosiy tahlili.
10. Islom ilmlari rivojlanishida movarounnahrlilik olimlarning o‘rni.
11. Islom dunyosiga yunon falsafasining kirib kelishi.
12. Islom dunyosida Arastu ta‘limotining qayta tiklanishi.
13. Bog‘dodda “Bayt al-hikma” (“Donishmandlar uyi”- “Ma‘mun akademiyasi”) ning tashkil qilinishi va uning ilm-fan rivojidagi roli.
14. Markaziy Osiyolik olimlarning Bag‘dod “Ma‘mun akademiyasi”dagi faoliyati va ilm-fan rivojidagi roli.
15. Sharq Uyg‘onish davri va uning xususiyatlari.
16. Xorazmda “Majlis al-ulamo” (“Olimlar majlisi” – “Ma‘mun akademiyasi”)ning tashkil etilishi va tabiiy-ilmiy ilmlarning rivoji.
17. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning tabiiy- ilmiy qarashlari.
18. Ahmad Farg‘oniyning tabiiy- ilmiy qarashlari.
19. Abu Nasr Forobiyning falsafiy qarashlari.
20. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning tabiiy- ilmiy qarashlari.
21. Abu Rayhon Beruniyning tabiiy- ilmiy qarashlari.
22. Abu Ali ibn Sinoning tabiiy- ilmiy qarashlari.
23. Nosir Xisravning tabiiy- ilmiy qarashlari.
24. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyodagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji.
25. Mirzo Ulug‘bek va uning maktabi vakillirining tabiiy-ilmiy qarashlari.
26. XVI-XVII asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy fikr.
27. XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy fikr.
28. XIX-XX asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy fikr.
29. Markaziy Osiyo xalqlari falsafasida ilmlar tasnifi masalasi.
30. Markaziy Osiyo xalqlari falsafasida shaxsning ma‘naviy kamoloti masalasi.

TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR

Rahbariy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: O‘zbekiston, 2024.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
5. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
6. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.Karimov I.A.
7. Karimov I.A. To'la asarlar to'plami. 1-22 jildlar. – T.: O'zbekiston,1996-2015.

Darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Aliqulov X,Nosirov R., Sharipov A., Usmonov M., Turdiboyev N. va boshqalar. O'zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari.- T.: Falsafa va huquq, 2007.
2. Ahmedova M.A., Shomatov O., Yo'ldoshev S. Hind falsafasi. T.: TDSHI. 2007.
3. Nuritdinov M.N., Po'latova D.A., Fayzixodjaev D.E.va boshq. Yaqin va O'rta Sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlari (VIII-XVIII asrlar) O'quv qo'llanma. – T. : TDSHI. 2014.
4. Po'latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Abduhalimov A., Shozamonov Sh.. Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI. 2013.
5. Po'latova D., Ro'zmatova G. G'arb falsafasi. O'quv qo'llanma. T.: TDSHI. 2013.
6. Содиқов Қ. «Қадимги туркий ёзувлар» ва «Қадимги turkiy til» fanlaridan dars matnlari. T., 2000.
7. Falsafa. Darslik. Ahmedova M.A. umum.tah. T.:2006.
8. Sharq falsafasi. T.:ToshDSHI. 2006 .
9. O'zbekiston falsafasi tarixi.O'quv qo'llanma.–T.:NOSHIR, 2013.
- 10.Ruzmatova G. Zamonaviy G'arb falsafasining muammo va yo'nalishlari. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2013.
- 11.Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). – T.: TDSHI. 2010.
- 12.Основы философии: Учебник для вузов. Под ред. Ахмедовой М.А. и Хана В.С. – Т., 2004.
- 13.Зотов А.Ф. Современная западная философия. –М.: Высшая школа, 2001.
- 14.Восточная философия. Т.:ТГИВ. 2006.
- 15.История восточной философии: Учебное пособие. - М.: ИФРАН.- 1998.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 16.Abduhalimov B. «Bayt–al hikma» va O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. –T.:Toshkent islom universiteti. 2004.

17. Ajdodlarimiz ma'naviy merosidan. – T.: Fan, 2014.
18. Aliqulov A. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.:Falsafa va huquq instituti. 2009.
19. Баходиров Р.М. Из истории классификации наук на средневековом мусульманском Востоке. –Т. : Фан. 2000.
20. Komilov N. Tasavvuf. –T.: TDSHI. 2006.
21. Ma'naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar)/Mas'ul muharrir: M.M. Xayrullaev. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 1999.
22. Нуритдинов М.Н. Философия Мавераннахра XVI-XVII веков. – Т. : TDSHI. 2015.
23. Нуритдинов М.Н. Из истории становления наук на мусульманском Востоке. –Т. : TDSHI. 2015.
24. Skirbekk G, Gilye N. Falsafa tarixi. – T.: Sharq, 2002.
25. Falsafa. Qomusiy lug'at. T., 2004
26. Falsafa. Ensiklopedik lug'at. T., 2010.
27. Karim T. Muqaddas "Avesto" izidan. -T., 2000.
28. Al-Buxoriy. Hadis. (Arabchadan Abdulg'ani Abdulloh tarjimasini). I-VI tomlar, T., 1990-1992.
29. Safarboyev O. Najmidin Kubro jasorati. -Urganch: UrDU, 2010.
30. Karimov T., Sharipov M. -Muhamad Muso Al Xorazmiy. -T.: TDIU, 2007.
31. Karimov T. Abu Rayhon Beruniy. -T.: TDIU, 2007.
32. Komilov N. Timsollar timsoli. T., 1991.
33. Yusuf Xos ~Hojib. Qutadg'u bilik. T., 1972.

Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.gov.uz>
3. <http://www.faylasuf.uz>
4. <http://booksss.ru> философия//Slovar_Philosof.rar
5. <http://www.philosophy.ru> Библиотека Института философии

Imtihonga kiritilgan savollar bo'yicha javoblarni baholash mezonlari

Imtihonni baholash uchun maksimal baho – 100 ball etib belgilanadi.

JAMI 4 ta savolga: 100 ball, shundan:

- 1-savolga javob: maksimal – 25ball;
- 2-savolga javob: maksimal – 25 ball;
- 3-savolga javob: maksimal – 25 ball.
- 4-savolga javob: maksimal – 25 ball.

Har bir savol bo'yicha javoblarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog'liqlikda yoritilgan;
- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada;
- nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;
- ilmiy mushohada yuritish iqtidori to'la ko'rinsa;
- keltirilgan faktlar hozirgi davrdagi jarayonlar, o'zgarishlar bilan o'zaro aloqadorlikda ochib berilgan, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to'g'ri yoritilgan;
- o'z fikrini tizimli mustaqil tahlil qilgan, erkin va mustaqil ifoda eta olgan;
- fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlarida bayon qilingan tamoyillar va xulosalarga har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga ***a'lo*** baho qo'yiladi.

Barcha savollarga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, ***yaxshi*** baho qo'yiladi.

Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa, ***qoniqarli*** baho qo'yiladi.

Fikr aniq ifoda etilmagan, bironta ham savolga qisman bo'lsada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun ***qoniqarsiz*** baho qo'yiladi.

